

GARVARD UNIVERSITETIDA SOTSILOGIYA TARIXINING RIVOJLANISHI

Sharofiddinova Sarvinoz Qobiljon qizi

sharofiddinovasarvinoz012@gmail.com

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti,

O'zbek tili ta'limi fakulteti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini,

Sotsiologiya yo'nalishi 1-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11401439>

Annotatsiya. Maqolada Garvard sotsiologiyasining paydo bo'lishi, rivojlanishi, vakillari va ilmiy ishlari hamda Pitirim Sorokinning ilmiy ijodi va Garvardga sotsiologiyani olib kirishi haqida bayon qilinadi.

Kalit so'zlar. Garvard, sotsiologiya, nazariya, hisobot, nazariyotchilar, sotsiologiya bo'limi, sotsial, munosabat, aloqa.

THE DEVELOPMENT OF THE HISTORY OF SOCIOLOGY AT HARVARD UNIVERSITY

Abstract. The article describes the emergence, development, representatives and scientific works of Harvard sociology, as well as Pitirim Sorokin's scientific work and the introduction of sociology to Harvard.

Key words. Harvard, sociology, theory, report, theorists, department of sociology, social, attitude, communication.

РАЗВИТИЕ ИСТОРИИ СОЦИОЛОГИИ В ГАРВАРДСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ

Аннотация. В статье описывается возникновение, развитие, представители и научные работы Гарвардской социологии, а также научная деятельность Питуриима Соркина и введение социологии в Гарвард.

Ключевые слова. Гарвард, социология, теория, доклад, теоретики, факультет социологии, социальное, отношение, коммуникация.

Kirish. Garvardda sotsiologiyaning rivojlanishini 1930-yildan Pitirim Sorokinning ish boshlashi davridan boshlab ko'rish mumkin. Sorokin Garvardga kelganda, u yerda sotsiologiya bo'limi yo'q edi, lekin yilning oxirida u tashkil etildi, va Sorokinni uning boshqarishga qo'yishdi. Sorokin sotsiologiya nazariyotchisi va 1960-yillargacha o'z asarlarini nashr ettirgan bo'lsada, uning ijodi bugungi kunda hayratlanarli tarzda kam esga olinadi. Uning nazariy qarashlari vaqt sinovlaridan yaxshi o'tmadi. Balki, Sorokinning vaqtinchalik ahamiyati asosan uning Garvard universiteti sotsiologiya bo'limini ochganligi va unga Talkott Parsonsni (u Garvardda iqtisodiyotdan dars berardi) sotsiologiya bo'yicha o'qituvchilikka taklif etganligi bilan izohlanadi. Parsons amerikaliklarni yevropa nazariyotchilari bilan tanishtirib va keyinchalik yirik sotsiologlar sifatida yetishib chiqqan ko'plab talabalarni tarbiyalagan uchun Amerika sotsiologiyasida obro'e'tiborli shaxsga aylandi¹.

Hujjatlar tahlili va metodologiya. Sorokin eng keskin va uzoq muddatli kelishmovchiligi Talkott Parsons bilan bo'lgan. Parsons Sorokin sotsiologiya bo'limini boshqarayotgan paytda Garvardda sotsiologiyadan dars berishga tayinlanadi. Sorokinning

¹ George Ritzer. Sociological Theory. Eighth Edition. Me Graw-Hill 2010. — P. 207

rahbarligida Garvadda Parsonsning karyerasi juda sekinlik bilan rivojlanardi. Nihoyat, u o'zini Garvardda va umuman, Qo'shma Shtatlarda eng nufuzli sotsiolog sifatida namoyon etdi. Sorokin va Parsons o'rtasidagi nizo ularning nazariyalarining juda o'xshashligi natijasida kuchaygan edi. Ularning xususiyatlari o'xshashligiga qaramay, Parsonsning ijodi Sorokinning ishlariga qaraganda ko'proq e'tiborga tushgan edi. Vaqt o'tishi bilan Sorokinda Parsonsning ijodiga nisbatan o'ta qiziqqonlik munosabati shakllandi, bu uning bir necha kitoblarida aks etdi. Bir tomondan, u Parsonsni o'zining eng yaxshi g'oyalarini o'zlashtirishda ayblardi. Boshqa tomondan esa, u Parsonsning nazariyasini tanqid qilardi².

Ular o'rtasidagi munosabatlarning yana keskinlashuvi aspirantlar masalasida yuzaga kelgan. Garvarddagi yosh sotsiologiya maktabining eng buyuk yutuqlaridan biri iqtidorli talaba-aspirantlami, shu jumladan, masalan, Robert Mertonni o'ziga jalb qila olganligidir. Talabalarga ikkala olim ham ta'sir ko'rsata olgan bo'lsa, Sorokinga nisbatan Parsonsning ta'siri nisbatan kuchliroq bo'lgan³. Aspirant bo'la turib, Merton Sorokinning assistenti sifatida ishlardi, lekin Sorokinning nazariy yo'nalishlarini qo'llab-quvvatlamagan. Merton unga dissertatsiyasiga izohlarni ko'rsatganda, Sorokin shunday javob beradi: «Hisobot ishi sifatida bu yaxshi. Siz tahminan minus besh olishingiz mumkin. Lekin, chuqur va yagona muhim nuqtai nazardan, men ishingiz borasida bir qancha keskin tanqidiy fikrlarni bildirishim lozim». Parsons Sorokinning o'rniga sotsiologiya bo'limi boshqaruvini qabul qiladi va uni «Sotsial munosabatlar bo'limi» deb qayta nomlaydi (Department of Social Relations). Bu borada Sorokin shunday deydi: Shunday qilib, men «Sotsial munosabatlar bo'limi»ni tashkil etish uchun sotsial psixologiya va madaniy antropologiyani qo'shib yuborish davridan boshlab qilinayotgan ishlarga va sotsiologiyani bu turlicha fanlarning eklektik massasiga qo'shib yuborilishiga javobgar emasman. Sotsial munosabatlar bo'limi mening rahbarligim ostidagi sotsiologiya bo'limi singari bunchalik ko'p mashhur sotsiologlami yetishtirib chiqarishi amri mahol. Oxir-oqibat Sorokin Garvard maktabida yakkalanib qoldi. Unga «yakka tadqiqotchi» tamg'asi bosildi, va unga faqat «universitet eshiklari ostiga Parsonsning o'z g'oyalarini o'g'irlaganligi to'g'risidagi arizalarini tiqishtirish» dan boshqa iloji qolmaydi. Talkott Parsons bir nechta ocherklarning ilgarigi nashrlariga qaramay, Parsonsning asosiy hissasi uning karyerasining boshlarida keyinchalik mashhur sotsiologiya nazariyotchilari bo'lib yetishgan aspirantlarga ta'siri bilan o'lchanadi⁴.

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Sorokinning Garvardga kelishi va u yerda sotsiologiya fakultetini ochishi Garvard uchun katta yutuq bo'ldi. Sorokin ijtimoiy borliqni individdan yuqori turuvchi ijtimoiy mavjudlik deb bildi, tarixiy jarayonni madaniyat asosiy tiplarining siklik almashinuvini tushuntirib o'ttdi. Natijada esa, uning bu ishi madaniyatlar negizida til, axloq, san'at, fan va din birgalikda mavjud bo'ldi⁵. Shuni aytib o'tish joziki, Garvarddagi sotsiologiya kafedrasini boy va rang-barang tarixga ega. Uning professor-o'qituvchilari empirik dunyo haqidagi fundamental sotsiologik savollarni hal qilish xizmatida sotsiologik nazariyani rivojlantirishga chuqur sodiqdirlar. XXI asr Garvard fakulteti beqiyos uslubiy kenglik va chuqurlik bilan ajralib turadi, professor-o'qituvchilar va talabalar tadqiqotga turli xil

² www.academia.edu

³ Jiyannuratova G.Sh. Sotsiologiya tarixi. Toshkent-2022. 320-bet

⁴ Jiyannuratova G.Sh. Sotsiologiya tarixi. Toshkent-2022. 321-bet

⁵ www.arxiv.uz

yondashuvlar, jumladan so'rovlar, etnografiya bilan shug'ullanadilar. Bugungi kunda garvard sotsiologiyasi ancha yuqori pog'onadan joy oldi va e'tiborga tushdi.

REFERENCES

1. George Ritzer. Sociological Theory. Eighth Edition. Me Graw-Hill 2010. — P. 207
2. Jiyanmuratova G.Sh. Sotsiologiya tarixi-464. Toshkent-2022.
3. Zaitov E.X., Jiyanmuratova G.Sh., Nurqulov B.G., Ilhomov U.U. Ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil. – Toshkent: Zuxro baraka biznes, 2024. – 180 b. / https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=fdboTmYAAA AJ&cstart=20&pagesize=80&citation_for_view=fdboTmYAAAAAJ:LO7wyVUgiFcC
4. ДЗИЯНМУРАТОВА Г. Ш. ИССЛЕДОВАНИЯ ИЗБИРАТЕЛЬНЫХ ПРОЦЕССОВ В НАЧАЛЬНЫХ ЭТАПАХ СТАНОВЛЕНИЯ ЭЛЕКТОРАЛЬНОЙ СОЦИОЛОГИИ //THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука. – №. 12. – С. 670-672.
5. Sherbutayevna J. G. YOSHLAR IJTIMOYIY FAOLLIGI DAVLAT SIYOSATINING USTUVOR YO 'NALISHI SIFATIDA //ZAMONAVIY DUNYONING IJTIMOYIY MANZARASI VA JAMIYAT TUZILMALARI TRANSFORMATSIYASI. – 2024. – T. 1. – №. 1.
6. Jiyanmuratova G.Sh. Elektoral sotsiologiya zamonaviy sotsiologiyaning yo'nalishi sifatida. Gumanitar fanlarni o'qitishning zamonaviy ilmiy yo'nalishlari. Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi materiallari. – Toshkent, 2023-yil 27-aprel. – B. 549-552. https://AAJ&cstart=20&pagesize=80&citation_for_view=fdboTmYAAAAAJ:VaXv18Fpj5cC
7. Jiyanmuratova G.Sh. The Issue Of Youth Trust In Political Institutions In Sociology. Sotsiologiya va huquq. 2024. 2-jild №3/1/1. – B. 58-65. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=fdboTmYAAA AJ&cstart=20&pagesize=80&citation_for_view=fdboTmYAAAAAJ:S16KYo8Pm5AC
8. Gulnoz J., Bunyod N. YOSHLAR IJTIMOYIY-SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISH-USTUVOR VAZIFA //ZAMONAVIY DUNYONING IJTIMOYIY MANZARASI VA JAMIYAT TUZILMALARI TRANSFORMATSIYASI. – 2024. – T. 1. – №. 1.
9. Sherbutayevna J. G. et al. YOSHLAR HUQUQIY MADANIYATINI YUKSALTIRISH-DAVLAT SIYOSATINING USTUVOR VAZIFASI //ZAMONAVIY DUNYONING IJTIMOYIY MANZARASI VA JAMIYAT TUZILMALARI TRANSFORMATSIYASI. – 2024. – T. 1. – №. 1.